

## ERON PREZIDENTLIK SAYLOVLARI: KONSERVATORLAR VA ISLOHOTCHILAR O'RTASIDAGI KURASH

Xodjimuratova Dilshoda

TDSHU katta o'qituvchisi, t.f.b.f.d. (PhD)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Erondag'i prezidentlik saylovlarining mamlakat siyosiy tizimidagi o'rni va ushbu siyosiy muvozanatga ta'siri tahlil qilinadi. Eron saylov tizimi demokratik jarayonlar va konservativ nazorat o'rtasidagi murakkab muvozanatni aks ettiradi. Prezidentlik saylovlarida ishtirok etish Kuzatuv kengashi tomonidan nomzodlarni tasdiqlash bilan cheklangan. Maqolada tarixiy voqealar va prezidentlik saylovlarini jarayonlarining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. 1980-2024-yillar mobaynida hukumat tepasiga kelgan prezidentlarning saylovoldi kampaniyalari hamda tarixiy shart-sharoitlar muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** Eron. saylov tizimi, prezidentlik saylovlar, Kuzatuv kengashi, konservatorlar va islohotchilar, siyosiy raqobat.

## ПРЕЗИДЕНТСКИЕ ВЫБОРЫ ИРАНА: ПРОТИВОСТОЯНИЕ МЕЖДУ КОНСЕРВАТОРАМИ И РЕФОРМИСТАМИ

### АННОТАЦИЯ

*В статье анализируется роль президентских выборов в Иране в политической системе страны и их влияние на этот политический баланс. Избирательная система Ирана отражает сложный баланс между демократическими процессами и консервативным контролем. Участие в президентских выборах ограничивается утверждением кандидатов наблюдательным советом. В статье рассматриваются исторические события и особенности процесса президентских выборов. Были обсуждены предвыборные кампании президентов, пришедших к власти в 1980-2024 годах, а также исторические условия.*

**Ключевые слова:** Иран, избирательная система, президентские выборы, наблюдательный совет, консерваторы и реформаторы, политическая конкуренция.

## PRESIDENTIAL ELECTIONS IN IRAN: THE OPPOSITION BETWEEN CONSERVATORS AND REFORMISTS

### ABSTRACT

The article analyzes the role of the presidential elections in Iran in the country's political system and the impact on this political balance. Iran's electoral system reflects a complex balance between democratic processes and conservative control. Participation in presidential elections is limited to the approval of candidates by the Supervisory Board. The article examines the specifics of historical events and the presidential election process. The pre-election campaigns of the presidents who came to power from 1980 to 2024 and the historical conditions were discussed.

**Keywords:** Iran, electoral system, presidential elections, supervisory board, conservatives and reformers, political competition.

### KIRISH

Eron saylov tizimi uzoq tarixga ega bo'lib, amaldagi hokimiyatni legitimlashtirishda muhim o'rinni tutadi. Eron Konstitutsiyasi bo'yicha saylov asosida rahbar tayinlanadigan bir nechta institutlar (Oliy rahbar, Prezident, Ekspertlar kengashi, Parlament) belgilangan. Eronda prezidentlik va parlament saylovlari islohotchilar va konservativ kuchlar vakillari o'rtasida kechadigan keskin kurash sharoitida o'tadi.

Eron Asosiy qonunining 114-moddasida<sup>1</sup> qayd etilishicha, prezident umumxalq ovoz berishi orqali to'rt yildan ketma-ket ikki muddatdan ko'p bo'limgan davrga saylanadi. Nomzodlar saylovlarning birinchi turida zarur bo'lgan 50 foiz ovoz to'play olmasa, ikkinchi tur o'tkaziladi. Unda saylovchilar birinchi turda yetakchi bo'lgan ikki nomzod uchun ovoz berishadi. Ikkinchi turda mamlakat prezidenti ovoz berish huquqiga ega eronliklarning ko'pchilik ovoziga ega bo'lishi orqala aniqlanadi. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, prezidentlikka nomzod Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak<sup>2</sup>.

Eron prezidentligiga 1980-yil 25-yanvarda o'tkazilgan birinchi saylovlarda ishtirok etishga liberal kayfiyatdagi nomzodlar yo'latilmagan. Saylovlarda R.Xumayniy tarafdarlari hamda liberal-burjua doiralari bilan yaqin aloqalarga ega bo'lgan Abulhasan Banisadr g'alaba qildi<sup>3</sup>. Saylovlarda 124 nafar nomzodlardan faqatgina 96 nafariga qatnashish uchun ruxsat berilgan. R.Xumayniy,

<sup>1</sup> قانون اساسی جمهوری اسلامی ایران.

(Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasi, 114-modda) [http://rc.majlis.ir/fa/content/iran\\_constitution](http://rc.majlis.ir/fa/content/iran_constitution).

قانون اساسی جمهوری اسلامی ایران.

(Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasi, 117, 118-moddalar) [http://rc.majlis.ir/fa/content/iran\\_constitution](http://rc.majlis.ir/fa/content/iran_constitution)<sup>2</sup>

<sup>3</sup> Алиев С.М. История Ирана — XX век. — М.: ИВ РАН, 2004. — С. 484.

“Kurashayotgan ruhoniyat jamiyati” va “Qum ilohiyot muassasalari” o‘qituvchilarining uyushmasi qo‘llab-quvvatlagani natijasida A.Banisadr saylovchilarning 73 foizi ishtirok etgan saylovda 10 milliondan ziyod (75,6 %) ovoz olishga muvaffaq bo‘lgan<sup>4</sup>.

Abulhasan Banisadrning prezidentlik davri Eron-Iraq urushi va mamlakatdagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davriga to‘g‘ri keldi. Vaqt o‘tgan sari A.Banisadr hukmron ruhoniyatni mustabit siyosat yuritish hamda “Islom Respublikasi partiyasi” a’zolari bo‘lgan o‘zining raqiblarini undan real hokimiyatni tortib olishga intilishda ayblagan holda R.Xumayniy tarafdarlarini jiddiy tanqid qila boshladi. A.Banisadr va bosh vazir Muhammadali Rajoiy o‘rtasidagi mojaroda ruhoniyat mazkur hukumat rahbarini qo‘llab-quvvatladi. Xususan, M.Rajoiy asta-sekin parlament yordamida prezidentning vazirlarni tayinlash funksiyalarini o‘ziga tortib ola boshlagandi. Bunga javoban prezident A.Banisadr parlament qarorlarini tan olishdan bosh tortdi. R.Xumayniy prezident va bosh vazirni o‘zaro ixtilofni to‘xtatish va hamkorlik qilishga chaqirib, ommaviy bayonotlarda bir-birlarini tanqid qilishni man qildi. Biroq A.Banisadr parlament va hukumat yig‘ilishlarida o‘ziga nisbatan muxolif mavqedagilarga qarshi chiqishlarni to‘xtatmadı. 1981-yil 1-iyunda maxsus komissiya A.Banisadrni mojaroni keltirib chiqarishda aybdor deb topib, parlament qarorlarini tan olishdan bosh tortganini qoraladi<sup>5</sup>.

Bu voqealardan ko‘p o‘tmay, A.Banisadrning Markaziy razvedka boshqarmasi bilan aloqasi borligidan dalolat beruvchi hujjatlar e’lon qilindi. Shundan so‘ng, Oliy rahbar R.Xumayniy prezident A.Banisadrni qurolli kuchlar bosh qo‘mondonligidan, parlament esa uni prezidentlik lavozimidan chetlatdi. 1981-yil 29-iyulda A.Banisadr mamlakatdan xorijga chiqib ketdi<sup>6</sup>.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Londonda nashr etiladigan “Tayms” gazetasida A.Banisadrning Erondagi teokratik tuzumga qarshi kurashga chaqiruvchi bayonoti e’lon qilinganidan so‘ng mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyat keskin murakkablashdi. Bu voqealardan keyin Eronning bir qancha yirik shaharlarida terroristik aktlar sodir etildi. Xususan, Tehrondagi “Islom Respublikasi partiyasi”ning qarorgohi portlatilishi natijasida partiya yetakchisi oyatulloh Muhammad Behishtiy, shuningdek parlamentning 28 nafar deputati va 9 nafar vazir halok bo‘ldi. Hukumat ushbu portlashda AQShning

<sup>4</sup> کیانوش بوستانی. مرور ۱۲ دوره انتخابات ریاست جمهوری در ایران.

(Kiyanush Bostoniy. Erondagi prezidentlik saylovlaring 12 davri sharhi) [Elektron manba]. 17.06.2021. URL: <https://www.bbc.com/persian/iran-features-57469402>

<sup>5</sup> Агаев С.Л. Иран между прошлым и будущим. События. Люди. Идеи. М.: Издательство политической литературы, 1987. — 319 с.

<sup>6</sup> Алиев С.М. История Ирана. XX век. М.: Институт Востоковедения РАН: Крафт+, 2004. — С. 504.

agenti hisoblanadigan Eron “Xalq mujohidlari tashkiloti”ni ayblab, uning a’zolarini hibsga olishni boshladi.

1981-yilgi prezidentlik saylovlariiga tayyorgarlik jarayoni Tehron va boshqa katta shaharlarda doimiy portlashlar va boshqa terraktlar sharoitida kechdi. Oliy rahbar R.Xumayniy bunga javoban harbiy tribunallarni shariat normalari orqali jinoyatchilarni qattiq jazolashga hamda jamiyatni turli xil tashqi buzg‘unchi g‘oyalar va hatti-harakatlardan ogoh bo‘lish, islom dini talablariga mos nomzodni saylashga chaqirdi. Saylovlar natijasida M.Rajoiy 88 foiz ovoz olib, prezidentlikka saylandi. Yuqorida zikr etilgan voqeа-hodisalar sharoitida Eron saylov tizimi tamomila ruhoniyat nazoratiga o‘tdi.

Qonunlar kuchaytirilganiga qaramay, terrorchilik harakatlari ko‘lami izchilligi bois ular Eronning deyarli barcha asosiy shaharlarini qamrab oldi. Bunga javoban hukumat 1981-yil yozidan boshlab 900 ga yaqin odamni qatl ettirdi<sup>7</sup>. “Xalq mujohidlari tashkiloti” mamlakatda ichki siyosiy beqarorlik keltirib chiqarish va Eron tuzumiga qarshi xalq isyonini ko‘tarish maqsadida tartibsizliklar uyushtirdi.

Bosh vazir qarorgohida 1981-yil 30-avgust kuni sodir etilgan portlash natijasida prezident M.Rajoiy, bosh vazir Muhammad Javad Bahonar va hukumatning yana 6 nafar a’zosi halok bo‘ldi. Hukumat portlashda AQSh jousularini ayblab, yangi prezident saylovlariiga tayyorgarlikni boshladi. Saylovlarda mutlaq ko‘pchilik (95%) ovoz bilan Ali Xomanaiy g‘alaba qozondi<sup>8</sup>. To‘rtinchи prezidentlik saylovlari 1985-yil 16-avgustda o‘tkazildi va unda amaldagi prezident A.Xomanaiy 87,9% ovoz bilan qayta saylandi. Unda ishtirok etgan fuqarolar 54,8 foizni tashkil etib, avvalgi saylovlarda ovoz bergenlardan deyarli 20 foiz kam qayd etildi<sup>9</sup>.

Eron Oliy rahbari R.Xumayniy 1989-yil 3-iyun kuni vafot etganidan so‘ng, uning o‘rniga amaldagi prezident Ali Xomanaiy Ekspertlar kengashi tomonidan tayinlandi. 1989-yil iyulida o‘tkazilgan saylovlarda Ali Akbar Hoshimiyy-Rafsanjoniy 94% ovoz bilan Eron prezidenti etib saylandi<sup>10</sup>. A.A.Hoshimiyy-Rafsanjoniy pragmatik siyosatchi bo‘lib, Eron siyosiy maydoniga hukumat tomonidan qabul qilinadigan har qanday qarorlar bevosita davlat manfaatlariga xizmat qilishi zarur degan yondashuvni ilgari surib chiqdi. Iqtisodiyot va moliya vazirligini nazorat qilish

<sup>7</sup> Агаев С.Л. Иран между прошлым и будущим. События. Люди. Идеи. М.: Издательство политической литературы, 1987.

<sup>8</sup> کیانوش بوستانی. مرور ۱۲ دوره انتخابات ریاست جمهوری در ایران. (Kiyanush Bostoniy. Erondagи prezidentlik saylovlarinинг 12 davri sharhi). [Elektron manba]. 17.06.2021. URL: <https://www.bbc.com/persian/iran-features-57469402>

<sup>9</sup> Президентские выборы 1985 года // Исламская революция: Вчера. Сегодня. Завтра. 03.07.2021. URL: <https://iran1979.ru/prezidentskie-vybory-1985-goda/>

<sup>10</sup> کیانوش بوستانی. مرور ۱۲ دوره انتخابات ریاست جمهوری در ایران. (Kiyanush Bostoniy. Erondagи prezidentlik saylovlarinинг 12 davri sharhi). [Elektron manba]. 17.06.2021. URL: <https://www.bbc.com/persian/iran-features-57469402>

hamda Markaziy bankni boshqarish vazifalari G‘arb davlatlarida tahlil olgan yosh mutaxassislar tasarrufiga yuklatildi. A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy hukumati mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish siyosatini amalga oshirishga qaror qildi. Natijada Eron iqtisodiyoti chet el sarmoyasi uchun muayyan darajada ochib berildi, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar hamda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi<sup>11</sup>.

1993-yil 11-iyunda o‘tkazilgan navbatdagi prezidentlik saylovlarida A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy 63% ovoz bilan navbatdagi muddatga saylandi<sup>12</sup>. A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy 1993-yilgacha prezident sifatida mamlakatda katta obro‘-e’tiborga ega edi. Chunki o‘sha davrda A.Xomanaiyning mamlakat siyosiy elitasi va aholi oldidagi nufuzi zaif bo‘lganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Eron siyosiy isteblishmentidagi nufuzli shaxslar uni lider sifatida qabul qilmagani va mamlakatda o‘z tarafдорлари tarmog‘ini rivojlantira olmagani bilan baholanadi. Biroq A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiyotni liberallashtirish siyosati xalq uchun kutilgan muayyan samaradorlikni bermagani bois, Oliy rahbar sifatida hukumat faoliyatini tanqid qilishi sharoitida A.Xomanaiyning obro‘-e’tibori yuksaldi<sup>13</sup>.

Mazkur shart-sharoitlarda 1997-yilda o‘tkazilgan prezidentlik saylovlarida Muhammad Xotamiy 69% ovoz bilan g‘alaba qozondi. M.Xotamiy saylovchilarning eng ko‘p ovozlarni Busher (83,7%), Xuziston (82,7%), Seiston va Balujiston (77,4%) kabi kam sonli millatlar yashaydigan viloyatlarda oldi<sup>14</sup>. Mamlakat tarixida ilk bor rasmiy hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan nomzodning (M.Xotamiy) g‘alaba qozongani Erondagi teokratik tizimda evolyutsion o‘zgarishlar amalga oshganiga ishora qiladi. Xususan, liberal siyosiy qarashdagi M.Xotamiy xalq o‘rtasida katta hurmatga egaligi Eron jamiyati modernizatsiya bo‘layotganligi, shahar ahonisining savodxonlik darjasini oshayotgani, shuningdek, iqtisodiyotda xotin-qizlarning o‘rni tobora yuksalayotganligini aks ettiradi. Bu esa o‘z navbatida, Eron jamiyati tub siyosiy va iqtisodiy islohotlarga hamda mamlakatni yanada liberallashtirishga tayyorligini ta’kidlaydi.

2001-yilgi prezidentlik saylovlarida M.Xotamiy 76,9% ovoz bilan navbatdagi muddatga saylandi<sup>15</sup>. Biroq prezident M.Xotamiyning tashabbusi bilan ilgari surilgan

<sup>11</sup> Алиев С.М. История Ирана. XX век. М.: Институт Востоковедения РАН: Крафт+, 2004.

<sup>12</sup> Филин Н.А. Социально-историческое развитие Исламской Республики Иран (1979–2008): факторы устойчивости государственной власти. М: РГГУ, 2012. С. 117.

<sup>13</sup> Buchta W. Who Rules Iran? The Structure of Power in the Islamic Republic. Washington: Washington Institute for Near Policy, 2000.

<sup>14</sup> Филин Н.А., Кокликсов В.О., Ходунов А.С. и др.; Современные избирательные системы. Вып. 16: Иран, Латвия, Литва. — М.: РЦОИТ, 2021. — С.115.

<sup>15</sup> Краткий взгляд на историю президентских выборов в Иране. IRNA axborot agentligi. [Elektron manba]. 17.05.2021.[https://www.iran.ru/news/analytics/87672/Kratkiy\\_vzglyad\\_na\\_istoriyu\\_presidentskih\\_vyborov\\_v\\_Irane](https://www.iran.ru/news/analytics/87672/Kratkiy_vzglyad_na_istoriyu_presidentskih_vyborov_v_Irane).

siyosiy-iqtisodiy islohotlar Eron Kuzatuv kengashining noroziligin keltirib chiqardi. Kuzatuv kengashi parlamentning islohotchilar bloki tomonidan ishlab chiqilgan “Prezident vakolatlarini oshirish” hamda “Kuzatuv kengashining saylov jarayoni ustidan nazoratini cheklash to‘g‘risida”gi ikkita qonun loyihasini rad etdi<sup>16</sup>. Eron aholisining 94% mamlakatda olib borilayotgan siyosiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, islohotchilarining vakolatlarini kengaytirish va konservativ organlari faoliyatini cheklash bo‘yicha umumxalq referendumini o‘tkazish (71%) tarafdori ekanligiga qaramay M.Xotamiy konservatorlar bilan murosa qilish siyosatini amalga oshira boshladи<sup>17</sup>.

Eron siyosiy tizimidagi o‘zgarishlar 2005-yilda o‘tkazilgan prezidentlik saylovlari natijasida konservatorlar pozitsiyasi mustahkamlandi. Jumladan, Eron aholisining o‘rta hol va kambag‘al tabaqalarining salmoqli qismi qo‘llab-quvvatlagani uchun ovoz berish huquqiga ega saylovchilarining 60 foizi ishtirot etgan saylovda 61,7 foiz ovoz bilan Mahmud Ahmадinajod g‘alabani qo‘lga kiritdi<sup>18</sup>. Buning natijasida konservatorlar bloki qaror qabul qilishning barcha asosiy markazlarini o‘z tasarrufiga oldi. 2005-yildan hokimiyatning muhim dastaklari astasekin qaytadan konservatorlar qo‘liga o‘tib, an’anaviy o‘ng kuchlar qo‘liga o‘tdi.

2009-yil iyun oyida prezidentlik saylovlari natijalariga ko‘ra M.Ahmadinajod 33,9 foiz ovoz bilan ikkinchi muddatga o‘z lavozimiga qayta saylangani e’lon qilinganidan keyin islohotchilardan nomzod bo‘lgan Mirhusayn Musaviy tarafдорлари Tehron ko‘chalarida ko‘p sonli norozilik namoyishlarini uyushtirib, saylov natijalarini bekor qilish talabini ilgari surdi. Namoyishchilar va huquq-tartibot organlari o‘rtasida jiddiy to‘qnashuvlar yuz berdi. Hukumatning bir qator nufuzli diniy-siyosiy arboblari, shu jumladan, saylovlarda qatnashgan nomzodlar (M.Musaviy va M.Karrubiy) Eron tarixida birinchi marta ovoz berish natijalarini tan olmadi. O‘z navbatida A.A.Hoshimi-Rafsanjoniy hukumatni xalqqa nisbatan aldov ishlatish va saylov natijalarini soxtalashtirishda aybladi. Biroq Oliy rahbar saylov jarayoni adolatli o‘tgani va shu bois qayta ovoz berishga hojat yo‘qligini ta’kidlab, namoyishlarni to‘xtatishga chaqirdi. Norozilik namoyishlari 2009-yil iyun oyining oxirigacha davom etdi. Norozilik namoyishlarining aktiv fazasi ularning yetakchilari, shu jumladan, islohotchilar guruhining taniqli siyosiy arboblari AQSh, Buyuk

<sup>16</sup> Abrahamian E. A History of Modern Iran. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

<sup>17</sup> Mahdavi M. Rethinking agency and structure in the study of democratic transition: Iranian Lessons. International Journal of Criminology and Sociological Theory, Vol. 1, No. 2, December 2008, P. 152. URL: <http://pi.library.yorku.ca/ojs/index.php/ijcst/article/viewFile/18026/16794>

<sup>18</sup> کیانوش بوستانی. مرور ۱۲ دوره انتخابات ریاست جمهوری در ایران. (Kiyanush Bostoniy. Erondag'i prezidentlik saylovlarining 12 davri sharhi). [Elektron manba]. 17.06.2021. URL: <https://www.bbc.com/persian/iran-features-57469402>

Britaniya va Isroiilning Eronga qarshi fitnasida ishtirok etib, jinoyat sodir etganliklarini ochiq tan olishga majbur qilinganidan keyin to‘xtatilishiga erishildi<sup>19</sup>.

Muxolif nomzod sifatida saylovlarda qatnashganlarning barchasi 1980-yillarda Eron siyosiy hayotida faol ishtirok etib, yuqori lavozimlarni egallagan. Saylov natijalariga e’tiroz bildirib, 2 millionga yaqin eronliklar qatnashgan eng kuchli norozilik namoyishlari Tehronda bo‘lib o’tdi. Hukumat rasmiylari M.Ahmadinajod davrida ancha kuchaygan “Basij” xalq militsiyasi yordamida norozilik harakatlarini kuch bilan bostirdi. Natijada muxolif nomzodlar Mirhusayn Musaviy va Mahdi Karrubiy 2011-yil 11-fevral kuni uy qamog‘iga olindi<sup>20</sup>.

2013-yil iyun oyidagi prezidentlik saylovlari jiddiy molivaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida o‘tkazildi. Bunday holat 2010-2012-yillarda AQSh va Yevropa Ittifoqi sanksiyalarining Eronga nisbatan keskin kuchaytirilishi hamda prezident M.Ahmadinajod boshchiligida mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatdagi jiddiy xatolar natijasida yuzaga kelgan. Shu bois A.Xomanaiy saylovlar arafasida mamlakatning iqtisodiy muammolarini hal qila oladigan nomzod prezident bo‘lishi kerakligi haqida bayonet berdi. Ovoz berish huquqiga ega eronliklarning 72,7 foizi ishtirok etgan saylovda R.Xumayniyning yaqin safdoshlaridan biri bo‘lgan Hasan Ruhoni 50,7 foiz ovoz bilan g‘alaba qozondi<sup>21</sup>. U 1980-yillar boshida Majlis deputati etib saylangan, 1989–2005-yillarda esa Eron Milliy xavfsizlik oliy kengashini boshqargan. Saylov natijalari ko‘pgina siyosiy tahlilchilar uchun kutilmagan holat bo‘ldi. Zero, ularning fikricha, A.A.Hoshimi-Rafsanjoniy ovoz berish jarayonida H.Ruhoniyni qo‘llab-quvvatlashga da’vat qilgani mazkur nomzodning g‘alabasini ta’minlab berdi<sup>22</sup>. Saylovlar Eronda saylov tizimi qanday natijaga olib kelishini oldindan aytib bo‘lmasligini va jamiyat demokratlashtirishga intilayotganini ko‘rsatdi. Yangi hukumat ilgari A.A.Hoshimi-Rafsanjoniyning hukumati tarkibida bo‘lgan xalq ichida nufuzli texnokratlar orqali shakllantirildi.

Eronda 2017-yil may oyida bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlarida H.Ruhoni o‘zini xalq huquqlarini himoya qiluvchi nomzod ekanligini ta’kidlab, saylovchilarni o‘ziga ovoz berishga chaqirdi. Mazkur jarayonda 2014-2016-yillar Eron bosh prokurori lavozimida ishlagan konservatorlar bloki namoyandasini Ibrohim Raisiy amaldagi prezident H.Ruhoniyning asosiy raqibi sifatida ishtirok etdi.

<sup>19</sup> Sundquist V. Iranian Democratization. Part I: A Historical Case Study of the Iranian Green Movement // Journal of Strategic Security. Vol. 6. No. 1. Spring 2013. pp. 17-34.

<sup>20</sup> Филин Н.А. Неудавшаяся революция цвета ислама: Причины подъема и упадка Зеленого движения в Иране. М.: Ленанд, 2023. 320 с.

<sup>21</sup> کیانوش بوستانی. مرور ۱۲ دوره انتخابات ریاست جمهوری در ایران. (Kiyanush Bostoniy. Erondagagi prezidentlik saylovlarining 12 davri sharhi). [Elektron manba]. 17.06.2021. URL: <https://www.bbc.com/persian/iran-features-57469402>

<sup>22</sup> Бондарь Ю.М. Иран: Военно-политическая ситуация. Институт Ближнего Востока. [Elektron manba]. 23.07.2013. URL: <http://www.iimes.ru/?p=17963>.

H.Ruhoniy tarafdorlari hamda uning raqiblari prezidentlik saylovlarida turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda targ‘ibot va tashviqot kampaniyasini olib borgani mazkur davrda o‘tkazilgan saylovlarning o‘ziga xos jihatni bo‘ldi. E’tiborga loyiq tomoni shundaki, ilgari ijtimoiy tarmoqlarni yot qarashlar va buzg‘unchilik manbai sifatida taqiqlashni taklif etgan konservativ lager vakillarining o‘zlari ham ijtimoiy tarmoqlardan aktiv foydalandilar. H.Ruhoniyni Oliy rahbarning ukasi Hodiy Xomanaiy ochiq qo‘llab-quvvatlab, saylovchilarni unga ovoz berishga chaqirdi. 2017-yil 19-mayda bo‘lib o‘tgan saylovda H.Ruhoniy 57% ovoz bilan qaytadan prezidentlikka saylandi<sup>23</sup>.

H.Ruhoniyning g‘alabasi 2015-yil iyul oyida islohotchilar hukumati Yevropa davlatlari bilan Eron yadro dasturi bo‘yicha keng qamrovli kelishuvga erishgani natijasida 2016-yil boshida G‘arb sanksiyalari bekor qilinishi natijasida Eron iqtisodiyoti tiklana boshlagan davrga to‘g‘ri keldi. Biroq 2017-yil oxiri va 2018-yil boshida Eronning qator shaharlarini qamrab olgan ommaviy xalq norozilik namoyishlari mamlakatda muayyan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi. 2018-yilda AQSh prezidenti Donald Tramp kelishuvdan chiqib, Eronqa qarshi qo‘srimcha sanksiyalar joriy qildi va buning oqibatida Erondagagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskin murakkablashdi.

Iqtisodiy vaziyatning keskin murakkablashuvi aholining islohotchilarga nisbatan bildirgan ishonchining yo‘qolishiga olib keldi. Buning natijasida 2021-yil 18-iyun kuni Eron prezidenti lavozimiga o‘zining Oliy rahbarga sodiqligini namoyish qilgan radikal konservator Ibrohim Raisiy saylandi. Saylovlarda I.Raisiy 62% natija bilan g‘alaba qozondi. Saylovda qatnashganlar soni Eron tarixida misli ko‘rilmagan past (48,8%) darajada qayd etildi<sup>24</sup>. 2021-yilgi prezidentlik saylovlari natijalarini eronlik saylovchilar qarashlarining xolis ifodasi deb bo‘lmaydi, chunki Kuzatuv kengashi islohotchilar lageridan birorta ham nomzodning saylovda ishtirok etishiga ruxsat bermadi.

Prezident I. Raisiy 2024-yilda fojiali tarzda halok bo‘lgani sababli Eronda muddatidan avval prezidentlik saylovlari o‘tkazildi. Uning natijasida islohotchi Mas’ud Pezeshkiyon 53,7% ovoz bilan g‘alaba qozondi<sup>25</sup>. Ovoz berish jarayonida 50 foizdan kam saylovchilar ishtirok etgani aholi konservatorlardan ham, islohotchilardan ham norozi ekanligini, shuningdek, jamiyatdagi og‘ir iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan charchaganini aks ettiradi.

<sup>23</sup> Бондарь Ю.М. Иран: Военно-политическая ситуация // Институт Ближнего Востока. [Elektron manba]. 25.06.2017. URL: <http://www.iimes.ru/?p=35904>.

<sup>24</sup> Кузнецов А.А. Последствия победы нового Президента Э. Раиси для внешней и внутренней политики Ирана. Часть 1 // Институт Ближнего Востока. [Elektron manba]. 29.06.2021. URL: <http://www.iimes.ru/?p=78133>

<sup>25</sup> مسعود پزشکیان به عنوان نهمین رئیس جمهور ایران انتخاب شد IRNA axborot agentligi. [Elektron manba]. <https://af.irna.ir/news/85530978/>

G‘arb davlatlari bilan munosabatlarni qayta ko‘rib chiqish tashabbusi M.Pezeshkiyon dasturining asosiy g‘oyasi bo‘ldi. U o‘z saylov oldi bayonotlarida 2015-yilgi yadroviy kelishuv bo‘yicha muzokaralarni qayta boshlash, internetdan foydalanishdagi cheklovlarni, siyosiy muxolifatga qarshi ta’qiblarni va norozilik namoyishlarini xavfsizlik kuchlari tomonidan qattiq bostirish chora-tadbirlarini o‘zgartirish tashabbuslarini ilgari surdi. Shuningdek, u 2023-yil sentyabr oyida qabul qilingan chodra kiymagan ayollarga nisbatan jazoni kuchaytiruvchi qonunga qarshi chiqdi. Shu nuqtai nazardan siyosiy tahlilchilar<sup>26</sup> M.Pezeshkiyonning prezidentlik lavozimiga saylanishini eronliklar jamiyatda tub siyosiy va iqtisodiy islohotlar o‘tkazilishiga ovoz berayotganining ramziy belgisi sifatida baholamoqdalar.

## XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosada shuni qayd etish lozimki, Eron saylov tizimi demokratik protsessual shakllar va chuqur ildiz otgan konservativ institutsional nazorat o‘rtasida murakkab munosabat borligini ko‘rsatmoqda. Eronda prezidentlik va parlament saylovlari muntazam ravishda o‘tkazib borilsada, mamlakatdagi siyosiy jarayonlar nomzodlarni saralaydigan va kutilmagan siyosiy o‘zgarishlarni o‘z vaqtida to‘xtatib qola oladigan Kuzatuv kengashi tomonidan doimo tizimli nazorat qilinadi. Kengash partiyalarning nomaqbul siyosiy arboblarini parlament va saylov jarayonidan chetlashtirish vakolatlariga egaligi mamlakat siyosiy maydoniga faqatgina Oliy rahbarga sodiq nomzodlar olib chiqilishini ta’minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

قانون اساسی جمهوری اسلامی ایران.

1. (Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasi, 114-modda)  
[http://rc.majlis.ir/fa/content/iran\\_constitution](http://rc.majlis.ir/fa/content/iran_constitution)
2. Buchta W. Who Rules Iran? The Structure of Power in the Islamic Republic. Washington: Washington Institute for Near Policy, 2000.
3. Abrahamian E. A History of Modern Iran. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
4. Sundquist V. Iranian Democratization. Part I: A Historical Case Study of the Iranian Green Movement // Journal of Strategic Security. Vol. 6. No. 1. Spring 2013.
5. Mahdavi M. Rethinking agency and structure in the study of democratic transition: Iranian Lessons. International Journal of Criminology and Sociological Theory, Vol. 1, No. 2, December 2008, P. 152. URL: <http://pi.library.yorku.ca/ojs/index.php/ijcst/article/viewFile/18026/16794>

6. Алиев С.М. История Ирана. XX век. М.: Институт Востоковедения РАН: Крафт+, 2004.
7. Агаев С.Л. Иран между прошлым и будущим. События. Люди. Идеи. М.: Издательство политической литературы, 1987.
8. Филин Н.А. Неудавшаяся революция цвета ислама: Причины подъема и упадка Зеленого движения в Иране. М.: Ленанд, 2023.
9. Филин Н.А. Социально-историческое развитие Исламской Республики Иран (1979–2008): факторы устойчивости государственной власти. М: РГГУ, 2012.
10. Филин Н.А., Кокликов В.О., Ходунов А.С. и др.; Современные избирательные системы. Вып. 16: Иран, Латвия, Литва. — М.: РЦОИТ, 2021.
11. Кузнецов А.А. Последствия победы нового Президента Э. Раиси для внешней и внутренней политики Ирана. Часть 1 // Институт Ближнего Востока. [Elektron manba]. 29.06.2021. URL: <http://www.iimes.ru/?p=78133>
12. Бондарь Ю.М. Иран: Военно-политическая ситуация. Институт Ближнего Востока. [Elektron manba]. 23.07.2013. URL: <http://www.iimes.ru/?p=17963>.
13. Бондарь Ю.М. Иран: Военно-политическая ситуация // Институт Ближнего Востока. [Elektron manba]. 25.06.2017. URL: <http://www.iimes.ru/?p=35904>.
14. Президентские выборы 1985 года // Исламская революция: Вчера. Сегодня. Завтра. 03.07.2021. URL: <https://iran1979.ru/prezidentskie-vybory-1985-goda/>
15. Краткий взгляд на историю президентских выборов в Иране. IRNA axborot agentligi. [Elektron manba]. 17.05.2021. [https://www.iran.ru/news/analytics/87672/Kratkiy\\_vzglyad\\_na\\_istoriyu\\_presidentskih\\_vyborov\\_v\\_Irane](https://www.iran.ru/news/analytics/87672/Kratkiy_vzglyad_na_istoriyu_presidentskih_vyborov_v_Irane).  
کیانوش بوستانی. مرور ۱۲ دوره انتخابات ریاست جمهوری در ایران.
16. (Kiyanush Bostoniy. Erondagi prezidentlik saylovlaringin 12 davri sharhi). [Elektron manba]. 17.06.2021. URL: <https://www.bbc.com/persian/iran-features-57469402>